

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA
KIRUVCHILAR UCHUN**

SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: _____
F.I.O. _____ Imzo _____

ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

Kitob tipi: 32

FANLAR:

Blok 1: Ona tili va adabiyot

Blok 2: Biologiya

Blok 3: Kimyo

Savollar kitobi raqami: 1701318

Toshkent – 2017

ONA TILI VA ADABIYOT

1. Sariq rang ozodlikka va kuch -quvvatga intilish, ochiqlik, faollik, shuningdek, hayotga umidvorlik ramzidir.
Ushbu gapda yasalish asosi yasama sifatga mansub bo'lgan so'z(lar) qanday sintaktik vazifa(lar)ni bajargan?
- A) *ega, to'ldiruvchi*
B) *to'ldiruvchi, aniqlovchi*
C) *kesim*
D) *aniqlovchi*
2. Mushoirada davra ishtirokchilaridan biri she'rni dabdaba bilan o'qibdi, uning bu qilgan ishi ko'chilikka ma'qul tushmabdi . Shunda shoirlardan biri u kishiga:
-Maylono, siz she'r o'qiyisizmi yoki odam qo'rqtasizmi? deya tanbeh bergen ekan.
Berilgan parchada sodda yasama so'zlarning yasalish asoslari qaysi turkumlarga oid so'zlar iborat?
A) *ot, sifat, fe'l* B) *ot, sifat* C) *ot, sifat* D) *sifat, fe'l*
3. Quyidagi qaysi gaplarda fonetik hodisa asosida yozilgan so'z yasovchi qo'shimcha qatnashgan?
1. Kel, o'zbek qardoshim, aziz qo'nog'im bo'l.
2. Ko'rpaning guldar qavig'i hammani qiziqtirdi.
3. O'ynoqi musiqa sadolari o'tirganlarning mudroq kayfiyatini tarqatdi.
4. O'tovda chordana qurib o'tirgan chol asta o'rnidan qo'zg'alib qo'ydi.
A) 2, 3, 4 B) 1, 2, 3 C) 3, 4 D) 1, 2, 3, 4
4. **parrak, qo'yin, tuk, bu, bo'g'iz, varaq, obro'**, **yuk, ko'ngil, shu**
Berilgan so'zlardan nechtasiga egalik qo'shimchalari qo'shilganda tovush ortishi yuz beradi?
A) 2 B) 4 C) 5 D) 3
5. Quyidagi qaysi gap(lar)da fonetik hodisa asosida yozilgan so'z yasovchi qo'shimcha qatnashmagan?
1. Kel, o'zbek qardoshim, aziz qo'nog'im bo'l.
2. Ko'rpaning guldar qavig'i hammani qiziqtidi.
3. O'ynoqi musiqa sadolari o'tirganlarning mudroq kayfiyatini tarqatdi.
4. O'tovda chordana qurib o'tirgan chol asta o'rnidan qo'zg'ab qo'ydi.
A) 3 B) 1, 2, 4 C) 1, 2, 3 D) 4
6. Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtaisdagi ruhiy-ma'naviy bog'lilik til orqali namoyon bo'ladi.
Ushbu gap haqida berilgan noto'g'ri fikrni aniqlang.
A) *to'ldiruvchiga tobelangan bo'lak uyushgan*
B) *uyushiq ega va uyushiq aniqlovchi qatnashgan*
C) *aniqlovchiga nisbatan hokim, egaga nisbatan tobe bo'lgan aniqlovchi uyushgan*
D) *kesimga bevosita tobelangan bo'lakning uyushishi kuzatiladi*
7. Insonlar istaydiki, yer yuzi gulbog'ining musaffo havosidan hamma bo'lsin bahramand.
Ushbu gap haqida to'g'ri fikrni aniqlang.
A) *Ergash gapning ham, bosh gapning ham egasi bir xil so'z turkumiga oid.*
B) *To'diruvchi ergash gapli qo'shma gap hisoblanadi.*
C) *Qaratqich aniqlovchilar faqat qaratqich aniqlovchiga tobelangan.*
D) *Ergash gap qismida barcha gap bo'laklari kesimga bevosita bog'langan.*
8. Berilgan so'zlardan qaysilari qismlaridan biri omonimlik xususiyatiga ega bo'lgan, bir xil so'z turkumi kompozitsiyasidan hosil qilingan qo'shma otlar hisoblanadi?
1) gulbeor; 2) atrigul; 3) toshbag'ir; 4) qo'yko'z; 5) belbog'; 6) bodomqovoq; 7) laylakqor
A) 3, 4, 5, 6 B) 1, 3, 5 C) 2, 5, 7 D) 1, 2, 6, 7
9. Qaysi so'zlar ham ko'p ma'noli ham shakldosh so'z hisoblanadi?
A) *chaqmoq, rasta, bardam* B) *dunyo, asl, ilik* C) *shox, tovon, es* D) *yoq, to'da, asil*
10. Istiqlol tufayli chekka qishloqlarda ham havaslansa arzigelik korxonalar yaratildi.
Berilgan gapda yasama so'zlar miqdori nechta?
A) 4ta B) 3ta C) 2ta D) 5ta
11. 1) qochirmoq; 2) qaytarmoq; 3) yedirmoq; 4) keltirmoq; 5) bo'shatmoq
Fel asosida ifodalangna o'timli-o'timsizlik ma'nosi qo'shimchasi ta'sirida o'zgargan fe'llarni aniqlang.

- A) 1, 2, 4, 5 B) 1, 2, 3, 5 C) 2, 3, 4 D) 1, 3, 5
12. Maydon o'lchovini bildiruvchi hisob so'z ishtirok etgan gapni aniqlang.
A) *Chol va kampir uch nafar qizlari bilan qishloq chetida yashar ekanlar.*
B) *To'tiniso ikki tanob yerini sotib, yetimlari bilan o'z qishlog'i - Rafqonga ketdi.*
C) *Axir o'n ikki yashar ukasini ko'rmasizmi, shu yoshidan uloq chopmoqchi.*
D) *Qo'linda bir metr keladigan irg'ay tayoq, orqasidan poylab bordim.*
13. Bir kuni chol bechora qo'li titrab osh suzilgan kosasini tushirib sindirdi, buni ko'rgan kelini nodon so'zlar aytib uning ko'nglini vayron qildi. Shundan keyin yigit otasini hovlining bir chekkasidagi zax uyg'a ko'chirdi.
Ushbu parchada qatnashgan fe'llar haqida berilgan to'g'ri fikrni aniqlang.
A) *ortirma nisbatdag'i fe'l 2 o'rinda qatnashgan*
B) *o'timli-o'timsizlik ma'nosi nisbat qo'shimchasi ta'sirida o'zgargan fe'l 1 o'rinda qatnashgan*
C) *aniq nisbatdag'i fe'l 4 o'rinda qatnashgan*
D) *o'zlik nisbatdag'i fe'l 1 o'rinda qatnashgan*
14. Berilganlardan ismlar guruhiba mansub nechta so'z vazifadosh ko'makchi bo'la oladi?
maqsadida, qadar, qarab, muvofiq, o'zga, tomon, bo'ylab, qarshi, qoshida, qaramay
A) 6ta B) 4ta C) 5ta D) 7ta
15. Qaysi javobda to'rtta sodda gap ishtirok etgan?
A) *Osti ham bir, usti ham bir tuproqning, Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.*
B) *Qilichbozlar, otliqlarning yurti bu, Moziyga boq, kimsan, aytar bu ko'zgu.*
C) *Bahor keldi, endi ortiq qish emas, Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.*
D) *Hamon suqli ko'zlar ila boqar yov, Oz yeringni o'zing asra bo'lib dov.*
16. Barcha so'zlar to'g'ri yozilgan javobni belgilang.
A) *xatto, muxojir, zaxmatkash*
B) *hatto, muhojir, zaxmatkash*
C) *hatto, muhojir, zahmatkash*
D) *xatto, muhojir, zahmatkash*
17. Quyida berilgan ko'chirma gapli qo'shma gaplarning qaysi birida tinish belgilarinining qo'llanish qoidasiga rioya qilinmag'an?
A) "Endi hamisha xonodon sohibining gapiga qulq solgaysiz, - dedi Bibixonim kelinga, - aytg'anlarini so'zsiz bajargaysiz".
B) Guri dedi: "G'azaldan bahr topmag'an kim?"
C) Ertoyevning gapini eshitmag'an inobat birinch unga yuzlanib: "Umarov uka, - dedi sekin, - unisiyam kerak, bunisiyam kerak".
D) Qaynonasi Bibixonim: "Biz in'omning teran ana'nasi bor, - dedi sirg'alarini kelinining qulog'iga taqib qo'yar ekan".
18. To'ng'ich bilan o'rtaча
Shovqin solib, mushtlashib,
Yetishibdi mozorga,
Ketmon-u bel ushlashib.
Ushbu she'riy parchada gapning qaysi bo'laklari uyushgan?
A) *ega, hol, to'ldiruvchi* B) *ega, hol, kesim* C) *ega, kesim* D) *ega, aniqlovchi, hol*
19. Uyushiq bo'laklar kesimga bevosita tobelangan gapni aniqlang.
A) *Labda tabassum-u ko'zda yosh bilan Senga talpinaman, buyuk nabiram...*
B) *Hattoki tuyg'usiz, chirik xazon ham Yashil po'panakdan bog'labdi qanot.*
C) *Xira tuman orasida cho'g'day miltirar, Jayron quvib, jayron yanglig' o'tgan kunlarim.*
D) *Amu bilan Sirdan suv ichgan, Zarafshonni loylatib kechgan Chavandozlar bordir bu elda.*
20. Yam-yashil o'tloqlarda dumalagan, chang ko'chalarda o'ynagan damlarimni unutolmay qiynalaman.
Ushbu gapda gap bo'laklari nechta tobe bog'lanish hosil qilgan?
A) 7ta B) 8ta C) 9ta D) 6ta
21. Berilgan she'riy parchada ot kesimlar sonini aniqlang.
Yangi yil, Kimlar yetdi senga, kimlar yetmadni.
Sen yangi yo'l doshsan, sen yangi hamdam,
Yo'qlab kelganining o'zi bir bayram.
Qulog'ingga bir gap aytaymi, endi,
Qirqinchi qasrimga o'taymi endi,
Kechagi yoshligim etakmi endi?

- A) 5 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 3 ta
22. Qaysi gap tarkibida ismlarning munosabat shakli bilan shakldosh bo'la oladigan fe'l yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan?
 A) *Yomonga yo'liqsang*, "yov keldi" qilar.
 B) *Daraxtni yer ko'kartiradi, odamni - el*.
 C) *Bir tishlam non gadosi bo'lib, birovning eshigiga borgan vaqtlarim ham bo'ldi*.
 D) *Kapalakning izidan quvib yurgan bolakaylar tinchlanib, uy-uylariga kirib ketishi..*
23. **Atamashunoslik** so'zi tarkibidagi ikkinchi ko'makchi morfema qaysi so'z turkumini yasash xizmat qilgan?
 A) *sifat* B) *fe'l* C) *ravish* D) *ot*
24. Qaysi gapda tarkibida lug'aviy shakl yashovchi qo'shimcha mavjud sifatlanmish qatnashgan?
 A) *Sizsiz kelajak yo'q, siz axir xalqning Ming yilni ko'rajak qarog'larisiz*.
 B) *Shahidlarning qirmiz qonidan, Alvon bo'ldi qora tunlaring*.
 C) *Qo'chqor bo'laturgan qo'zichoqning manglayi tug'ilgan chog'da do'ng bo'lur*.
 D) *Uzoqlarda zalvorli tog'lar xayolimni keldilar bosib*
25. Ozod Sharafiddinov hayoti va ijodiga tegishli bo'limgan ma'lumotni toping.
 A) *Jahon adabiyoti* jurnalining 100ta sonini tayyorlab ulgurgan.
 B) *O'zbek adabiyotshunosligida ko'p tilga olinadigan "shafqatsiz realizm"* ko'rinishlarini o'tgan asrning 60-yillarida o'zbek romanchiligiga olib kigan .
 C) *Cho'lpon, Fitrat singari ijodkorlar haqida yozgan maqolalari katta shov-shuvga sabab bo'lgan*.
 D) *Zaharxanda qahqaha*, "Bir tilda gaplashaylik", "She'r ko'p, ammo shoir-chi?" maqolalari adabiy jamoatchilik orasida birdan og'izga tushgan, munozara mavzusiga aylangan.
26. Janni Rodarining "Shahzoda Plombir" ertagi qaysi turkumga mansub?
 A) *"Uchtadan oxiri bor ertaklar"*
 B) *"Rim ertaklari"*
 C) *"Telefonda aytilgan ertaklar"*
 D) *"Osmondag'i to'rt"*
27. Quyidagi bayt qaysi ijodkorning tarji'bandida takrorlangan?
 Dahr bir vayrona edurkim, zzarob obod erur,
 Chiqsa andin har kishi - g'am bandida ozod erur.
 A) *Alisher Navoiy* B) *Ogahiy* C) *Nodira* D) *Uvaysiy*
28. Musa Jalilning "Moabit" daftari to'plamini kim o'zbek tiliga tarjima qilgan?
 A) *Jumaniyoz Jabborov* B) *Mamarasul Boboyev* C) *Ergash Ochilov* D) *Erkin Vohidov*
29. "... birovga bosh egmadi. Imonini muhkam ushladi. O'ziga gard yuqtirmadi. Olamdan halol, pokiza yashab o'tdi. Laganbardorlik , birovga mutelik, hasadgo'ylik unga begona edi.
 ...Qalbimning parchasi singmasa agar,
 Rozimasman, birov hadya etsa zar.
 Bu satrlar ...ning she'rda chizilgan suratiga o'xshaydi..."
 Ushbu parcha qaysi ijodkor haqida bitilgan?
 A) *Zulfiya* B) *Saida Zunnunova* C) *Asqad Muxtor* D) *Oybek*
30. Berilgan qaysi g'azallar hasbi hol yo'nalishida yozilmagan?
 1) Turdining "Tor ko'ngullik beklar ..." misralari bilan boshlanuvchi g'azali; 2) Turdining "Turdiman" radifli g'azali; 3) Nodiraning "Kel, dahrni imtihon etib ket ..." misralari bilan boshlanuvchi g'azali; 4) Uvaysiyning "Sog'indim" radifli g'azali.
 A) 2, 4 B) 1, 3 C) 1, 2, 3 D) 2, 3, 4
31. "Alar qo'ydi ikkisi yo'l sari pay,
 Boqib turg'onda yo'lg'a zar sochib oy.
 Birikib ketti oshiqlar uzoqqa,
 Tinmay yo'l uza qo'ygan tuzoqqa".
 Ushbu parchada tasvirlangan oshiqlar kim edi?
 A) *Kuntug'mish va Xolbeka* B) *Farhod va Shirin* C) *Layli va Majnun*
 D) *Suhayl va Guldursun*
32. Qaysi dramatik asarda "Bu kecha tushimda payg'ambarni ko'rdim, sizni so'rab yubordilar",- deya xushomadgo'yligi evaziga chopon kiygan obraz uchraydi?
 A) "Mehrobdan chayon" B) "Advokatlik osonmi?" C) "Abulfayxon"
- D) "Sohibqiron"
33. Quyidagi qaysi misra bilan boshlanuvchi she'r muxammas janrida bitilmagan?
 A) "Bu kunlar boshimizda bir sahab o'lsa ajab ermas" (Zavqiy)
 B) "Emdi sendek, jono, jonon qaydadur" (Muqimiyy)
 C) "Qaysi falak burjining mehri puran vorisan" (Komil Xorazmiy)
 D) "La'li jonbaxshi ngdin ayru obi hayvonni netay?" (Husayniy)
34. Ogahiy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan qaysi asar tarixiy hisoblanadi?
 A) "Axloqy Muhsiniy" (Koshify)
 B) "Ravzt us-safo' (Mirxonod)
 C) "Badeo ul-vaqoe" (Vosifiy)
 D) "Shoh va gado" (Hiloliy)
35. "Gul yaprog'i asalga tushgandek, uni beshikka bog'ladilar. Uni baxt bilan saodat doya singari odat bo'yicha tarbiyaladilar; bir lahma ham undan bexabar qolmang, ko'z qorachig'idek asradilar. Uni ko'z yoshini saqlagandek ko'zda asradilar".
 Ushbu parchada qaysi adabiy qahramon go'dakligi haqidagi she'riy misralarning nasriy bayoni berilgan?
 A) *Farhod* B) *Qays* C) *Layli* D) *Shirin*
36. Tig'i ishq-u xanjari nozingdin o'ldum subh-u shom,
 Dilfigor-u dilfigor-u dilfigor-u dilfigor.
 Baytda qo'llangan she'riy san'atlar turini aniqlang.
 A) *tanosub, tardi aks* B) *tanosub, takrir* C) *tanosub, tarse'* D) *tashbeh, talmeh*
- ### BIOLOGIYA
37. Quyonlarda qulqoq suprasining uzunligi 2 juft polimer genlarga bog'liq. Agar qulqoq suprasining uzunligi 24 sm li $A_1A_1A_2a_2$ genotipli urg'ochi quyon va qulqoq suprasining uzunligi 16 sm li $a_1a_1A_2a_2$ genotipli erkak quyon bilan chatishirilsa, avlodning necha foizini qulqoq suprasining uzunligi 24 sm li quyonlar tashkil qiladi?
 A) 25 B) 12,5 C) 50 D) 75
38. Tishlarning qoramir rangi ikkita dominant gen ta'sirida rivojlanadi. Bu genlarning biri autosomada, ikkinchisi X xromosomada joylashgan. Bu belgining autosomada joylashgan turiga ega bo'lган erkak va jinsga birikkan turiga ega bo'lган ayol oиласида tishlari normal bo'lган qız va o'g'il tug'ildi. Ushbu oilada tug'iladigan farzandlarning necha foizida belgining faqat X xromosoma orqali irlasidan turi mavjud bo'ladi?
 A) 12,5 B) 50 C) 25 D) 75
39. Odamda gipercolesterinuriya dominant belgi sifatida autosomadagi genlar ishtirokida irlasidan. Gomozigotalilarda kasallik ateroskleroz va terida xavfsiz o'simtalar paydo bo'lishi bilan kechadi. Geterozigotalilarda kasallik yengil o'tib, faqatgina qonda xolesterin miqdorining yuqori bo'lishi bilan xarakterlanadi. Gipertrixoz Y xromosomada joylashgan. Gipercolesterinuriyaning yengil formasi bilan kasallangan ayol o'ziga o'xshash va gipertrixoz bilan kasallangan erkakka tur mushga chiqdi. Farzandlarning gipertrixoz bilan tug'ilish ehtimolligini (%) aniqlang.
 A) 25 B) 100 C) 75 D) 50
40. Molekulyar massasi 6600 bo'lgan oqsilning sintezi haqidagi ma'lumotni traskripsiya qiluvchi i-RNK uzunligini (nm) toping.
 Oqsil tarkibidagi har bir aminokislota qoldig'ining molekuyar massasi 120 ga teng bo'lib, nukleotidlardan orasidagi masofa 0,34 nm ni tashkil etadi.
 A) 56,1 B) 18,7 C) 51,6 D) 112,2
41. Moddalar almashnuvi haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
 A) *ATF tarkibidagi uchta fosfat kislotaning ajralishi 40 kj energiya chiqishiga imkon beradi*.
 B) *Eukariot hujayrada reduplikatsiya va translatsiya yadroda, transkripsiya sitoplazmada amalga oshadi*.
 C) *Fotosintez, xemosintez reaksiyalari moddalar almashinuvining oralig bosqichida amalga oshadigan assimilatsiya jarayoni reaksiyalari hisoblanadi*.
 D) *Glukoza molekulasiidagi potensial energiyaning o'rtacha 40 foizi anaerob parchalanishdan ajraladi*.
42. Kungaboqr somatik hujayrasida xromosomalar soni olchaning xromosomalaridan ikkitaga ko'p. Agar kungaboqr savatchasida 442 ta urug' hosil bo'lsa, changdonda hosil bo'lgan mikrosoralarda jami xromosomalarning sonini toping.

- A) 1768 B) 884 C) 7514 D) 15028
43. Bir sinfga mansub o'simliklar navlarini aniqlang.
 A) *Yulduz, Toshkent-1, Ulug'bek-600*
 B) *Zarg'aldoq, Nimrang, Samarqand-3*
 C) *Zarafshon, Buxoro-9, Sangzor*
 D) *Vatan, Sangzor, Yulduz*
44. Xantoria haqidagi noto'g'ri ma'lumotni toping.
 A) *avtotrof oziganadi*
 B) *tarkibida murein uchraydi*
 C) *xitin qobiqli hujayralari bor*
 D) *vegetativ usulda ko'payadi*
45. Paleozoy (a) va mezozoy (b) eralariga xos biologik progresslarni aniqlang.
 1) qushlarda to't kameralli yurak ; 2) qirqulloqsimonlarda urug';
 3) hasharotlarda qanon; 4) stegosefallarda besh barmoqli oyoqlar;
 5) sutevizchilarda jun qoplami; 6) sudralib yuruvchilarda qalin po'choq bilan qoplangan tuxum
 A) a-3,4; b-1,2 B) a-2,6; b-1,5 C) a-1,4; b-5,6 D) a-1,3; b-2,5
46. Biosfera evolutsiyasining uchinchi bosqichida qanday jayaronlar sodir bo'lgan ?
 1) dastlabki ko'p hujayrali organizmlar paydo bo'lishi; 2) biosfera gomeostaz holatining buzilishi; 3) qanotli hasharotlar rivojlanishi; 4) "parnik effekti" natijasida harorat ko'tarilishi; 5) qirg'oqqa yaqin joylashgan suvo'tlar tanasining tabaqalashuvi; 6) kislotali yomg'irlar yog'ishi oqibatida hosildorlikning keskin kamayib ketishi
 A) I,5,6 B) 2,3,4 C) 2,4,6 D) I,3,4
47. Quyida berilgan organizmlar orasida urg'ochilar gomogametali (a), erkaklari geterogametali (b) organizmlarni aniqlang.
 1) nandu; 2) skuns; 3) kondor; 4) malla revun; 5) tapir; 6) lama; 7) tasqara
 A) a-2,4; b-5,6
 B) a-4,5; b-2,7
 C) a-2,6; b-1,7
 D) a-5,6; b-1,3
48. Drozofila pashhasining qaysi belgilarini ifoda etuvchi genlar har xil gomologik xromosomalarda joylashgan?
 A) *tananing kulrang bo'lishi va qanotning normal uzunligi*
 B) *ko'zning oq rangi va ko'zning qizil rangi*
 C) *tananing qora rangi va qanotning kalta bo'lishi*
 D) *tananing kulrang bo'lishi va ko'zning oq rangi*
49. Agar poliomiyelit virusi orqa miyaning faqat bel segmentlarini zararlangan deb tasavvur qilsak, bu holatda quyidagi qaysi muskullar falajlanishi kuzatilmaydi?
 1) bo'yinning teri osti muskuli; 2) sonning to'g'ri muskuli; 3) ko'zning aylana muskuli; 4) diafragma muskuli; 5) boldirning uch boshli muskuli 6) oyoq panjasini yozuvchi muskul; 7) deltasimon muskul; 8) qorinning qiyshiq muskuli; 9) tashqi qovurg'alalaro muskul
 A) 2,6,8 B) 6,9 C) I,4,7 D) 3,5
50. Odam yuragiga hos bo'lмаган ма'lumotni aniqlang.
 A) o'ng qorincha qisqarganda qon o'pka arteriyasiga chiqadi
 B) chap qorincha qisqarganda qon o'pka venasiga chiqadi
 C) o'ng bo'l macha uch tavaqali klapan ochiladi
 D) chap bo'l macha qisqarganda ikki tavaqali klapan ochiladi
51. Odamdag'i o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.
 1) vegetativ nerv sistemi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'Ining harakatida ishtirot etadi
 A) I,4,5 B) I,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Odam organizmda A vitaminining yetishmasligi natijasida...
 1) milklar qonaydi, tishlar to'kiladi. 2) enterit kasalligi kelib chiqadi.
 3) qo'l-oyoq muskullari uvushib og'riydi. 4) nerv tolalari falajlanadi.
 5) traxeyaning shilliq pardasi yallig'lanadi. 6) epiteliy to'qimasining yangilanishi buziladi.
 A) 3,4 B) 4,5 C) I,5 D) 2,6
53. Sezgi analizatorlari haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang.
 A) *Terining derma qavatida sovuqni va siypalashni sezuvchi retseptorlar*
- issiqni va og'rigni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chugurroq joylashgan.
 B) *Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.*
 C) *Quloqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida perilimfa, parda labirinti ichida endolimfa suyuqligi bo'ladidi.*
 D) *Harakat analizatorining oly nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'inining orqa markaziy egatida joylashgan.*
54. Bezzak (a), terlama (b), leyshmanioz (c) qo'zg'atuvchilari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang
 A) a-bakteriya; b-virus; c-sodda hayvon
 B) a-sodda hayvon; b-bakteriya; c-sodda hayvon
 C) a-sodda hayvon; b-bakteriya; c-bakteriya
 D) a-sodda hayvon; b-virus; c-bakteriya
55. Butli o'rgimchak oyoq paypaslagichlariga xos xususiyatlarni aniqlang.
 1) xitin po'st bilan qoplanmagan; 2) pastki jag'lar vazifasini bajaradi; 3) sezgir tukchalar bilan qoplangan; 4) yurishda ishtirot etadi; 5) yurish oyoqlariga nisbatan kalta; 6) tuyg'u organi hisoblanadi
 A) 2,3,6 B) 4,5 C) I,3,5 D) I,4
56. Bosh skeletsizlarning bosh skeletlilardan farqini aniqlang.
 1) nerv sistemasi nerv nayidan iborat; 2) ichki skelet mavjud emas; 3) bosh va orqa miya markaziy nerv sistemasini hosil qiladi; 4) umurtqa pog'onasi rivojlanmagan; 5) qon aylanish doirasini yopiq; 6) skeleti suyak va tog'aydan iborat
 A) I,4 B) 3,5,6 C) 2,4 D) I,2,5
57. Leyshmaniya va sil batsillasi uchun umumiyo bo'lgan xususiyatlarni aniqlang.
 A) *Eukariot organizm, irsiy axboroti sitoplazmadagi halqasimon DNKda joylashgan.*
 B) *Bir hujayrali organizm, hujayra qobig'i xitindan iborat.*
 C) *Yadroshi ikki qavat membrana bilan o'ralgan, reduplikatsiya jarayoni sitoplazmada kechadi.*
 D) *Membranasi ikki qator lipid va oqsil molekulalaridan iborat, ribosomasitoplazmada translyatsiyada qatnashadi.*
58. O'simlikxo'r umurtqali (a), yirtqich umurtqasiz (b) hayvonlarni aniqlang.
 1) maral; 2) tillako'z; 3) kolorado qo'ng'izi; 4) kabarga; 5) miqqiy; 6) falanga; 7) xonqizi; 8) zlatka; 9) biy; 10) qaldirg'och
 A) a- 4,5; b-7,9
 B) a- 1,4; b-2,6
 C) a- 4,10; b-8,9
 D) a- 3,8; b-7,9
59. Batsidiya va pichan batsillasi uchun umumiyo bo'lмаган xususiyatlarni aniqlang.
 A) *Translyatsiya jarayoni sitoplazmada kechadi, spora hosil qiladi*
 B) *Irsiy axborat DNK molekulasiida joylashgan, hujayrasи qobiq bilan o'ralgan*
 C) *Membranasi ikki qator lipid va oqsil molekulalaridan iborat, ribosomasitoplazmada translyatsiya qatnashadi*
 D) *Prokariot organizm, irsiy axboroti faqat sitoplazmadagi halqasimon DNKda joylashgan*
60. Odam organizmi hujayralardagi silliq endoplazmatik to'r membranalari ishlab chiqriladigan gormonlar qaysi javobda to'g'ri berilgan?
 1) tripsin; 2) insulin; 3) androsteron; 4) timozin; 5) somatotrop; 6) melanin; 7) estrogen
 A) 3,7 B) 2,5 C) 2,6 D) I,4
61. Meyoz natijasida hosil bo'ladi hujayralarni aniqlang.
 1) itsigakning mikrosporasi; 2) sigirquyuq tuxum hujayrasi; 3) do'lana kapalagining tuxum hujayrasi; 4) quyonjunning tuxum hujayrasi; 5) g'o'za tunlamining gametasi; 6) gazandaning tuxum hujayrasi; 7) gatteriyaning spermatazoidi
 A) I,3,5 B) 2,4,6 C) 2,4,7 D) 3,5,6
62. Genotipik (a) va fenotipik (b) o'zgaruvchanlik bilan bog'liq hodisalarini aniqlang.
 1) krossingover natijasida genlar rekombinatsiyasi; 2) meyoz jarayonida xromosomalarning tasodifiy tarqalishi; 3) belgining reaksiya normasi doirasida o'zgarishi; 4) genlarning tuzilishi saqlangan holda ularning namoyon bo'lishingin o'zgarishi; 5) urug'lanish jarayonida gametalarning tasodifan qo'shilishi.
 A) a-3; b-4,5 B) a-2,5; b-3 C) a-1,2; b-4,5 D) a-2,4; b-1,3

63. HaeIII restriktazasi uchun xos belgilarni ko'rsating.
 A) *to'rtta nukleotid juftligini taniydi, tarkibi bo'yicha transpazona o'xshaydi*
 B) *peptid bog' mayjud, to'rtta nukleotid juftligini taniydi*
 C) *vodorod bog' mayjud, tarkibi transpazon bilan o'xshash*
 D) *DNKni yopishqoq uchlar hosil qilib kesadi, peptid bog'larni uzadi*
64. Nastarin qaysi jihatlari bilan kamxastakdan farq qiladi?
 1) urug'lanishdan so'ng meva hosil qiliishi; 2) gullarning qiyshiqligi; 3) ro'vak to'pgul hosil qiliishi; 4) barglarini novdada joylashuv; 5) hayotiy shakli; 6) tanasining yog'ochlashganligi
 A) 1,3 B) 2,5 C) 4,6 D) 2,6
65. Bodiyon (a) va bo'tako'z (b) ning to'pguliga xos belgilarni aniqlang.
 A) *a-umumiy gulpoya qisqa, gullar bir tekislikda joylashgan; b-uzun gulpoyada gullar ketma-ket joylashgan*
 B) *a-asosiy gulpoyasi shoxlangan; b-atrofi o'rama bargchalar bilan o'rallan*
 C) *a-asosiy gulpoyasi shoxlanmagan; b-asosiy gulpoyasi shoxlangan*
 D) *a-atrofi o'rama bargchalar bilan o'rallan; b-gullar gulpoyaga uzun bandlar bilan birikadi*
66. Gullar qiyshiqlik, barglari murakkab tuzilgan o'simliklarni aniqlang.
 1) o'tloq sebagasi; 2) yantoq; 3) yeryong'oq; 4) beda; 5) burchoq; 6) partenotesisus.
 A) 2,4,5,6 B) 1,2,3,6 C) 1,3,4,5 D) 2,3,4,6
67. Quyida keltirilgan madaniy o'simliklar orasidan har xil markazdan kelib chiqqan o'simliklarni aniqlang.
 1) sholi; 2) sabzi; 3) qalampir; 4) loviya; 5) banan; 6) shakarqamish; 7) tariq; 8) kofe daraxti
 A) 2,7 B) 5,8 C) 1,6 D) 3,4
68. Evernia haqidagi noto'g'ri ma'lumotni toping.
 A) *atmosfera havosi tozaligini ko'rsatuvchi mezon*
 B) *tuproq hosil bo'lishiда ishtirok etadi*
 C) *poyasida xitin moddasi uchraydi*
 D) *zamburug' bilan bir hujayrali suvo'tining simbiozi*
69. Zuhrasoch o'simligida sporadan rivojlanuvchi bo'g'inda qanday qismlar hosil bo'ladi?
 1) ildizpoya; 2) barg; 3) poya; 4) rizoid; 5) arxegoni; 6) anteridiy; 7) murtak; 8) sorus; 9) sporangiy; 10) gametalar
 A) 5,6,7 B) 4,5,10 C) 1,2,3 D) 7,8,9
70. Organizmlarning qaysi sistematik guruhlari aromorfozlar natijasida paydo bo'lgan?
 1) to'garak chuvalchanglar; 2) qisqichbaqasimonlar; 3) ayiqsimonlar; 4) o'rgimchaklar; 5) qo'lqanoltililar; 6) hasva qandalasi; 7) o'rgimchaksimonlar; 8) terili toshbaqa
 A) 1,2,7 B) 1,3,4 C) 3,5,8 D) 3,6,7
71. Bitta biogeografik viloyatda tarqalgan hayvonlar juftligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.
 1) alligator va iguana; 2) tasqara va kolibri; 3) kapachi va nandu; 4) skuns va shinshila; 5) orangutan va shinshila; 6) los va bizon
 A) 3,4,5 B) 1,2,5 C) 1,2,6 D) 3,5,6
72. Quyidagilardan ajdodlar belgisining takrorlanishiga mos misollar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
 1) bug'doyiq, marvaridgul, qirqquloqlar ildizpoyasidagi qobiqlar; 2) otning ikkinchi va to'rtinchı barmoqlar; 3) uch juft emchakli buzoqchaning tug'ilishi; 4) to'riq otlarda xira chiziqlarning paydo bo'lishi; 5) kitning dumg'aza va orqa oyoq suyaklari; 6) pashsha va chivinning ikkinchi juft qanoltilari; 7) yuzi va badani yungli chaqaloqlar tug'ilishi; 8) dumli bola tug'ilishi
 A) 2,3,4,6 B) 3,4,7,8 C) 1,2,5,6 D) 4,5,6,7
- KIMYO**
73. Butadiyen kauchukdagi monomer zvenolar soni tabiiy kauchukdagi zvenolar sonidan 300 taga ko'p. Tabiiy kauchukdagi 32% ebonit (molekulyar massasi 425000) olindi. Butadiyen kauchugining polimerlanish darajasini aniqlang.
 A) 4250 B) 4000 C) 3700 D) 4550
74. Qaysi modda fluoressein va eozin olishda asosiy xomashyo hisoblanadi?
 A) *fenol* B) *ftal angidrid* C) *fluroglutsin* D) *galantamin*
75. Azotning o'zlashtirilishida va organizmdagi oksidlanish-qaytarilish jarayonlarida katta ahamiyatga ega metallni aniqlang.
 A) *Co* B) *Fe* C) *Cu* D) *Mo*
76. 22,5 g aminokislota bilan to'la reaksiyaga kirishish uchun NaOH ning 120 g eritmasi sarflandi. Agar natriy gidroksid eritmasi tarkibida $12,3 \cdot N_A$ vodorod atomi mavjud bo'lsa, aminokislotani aniqlang.
 A) *valin* B) *alanin* C) *leysin* D) *glitsin*
77. Fosfor mo'l miqdordagi kislorodda yondirilganda olingan oksid 200 g 9,8% li fosfat kislota eritmasida eritilganda fosfat kislota miqdori 3 marta ortdi. Olingan eritmaga o'yuvchi natriy eritmasidan 540 g qo'shilganda hosil bo'lgan tuz massasini (g) aniqlang. Ishqor eritmasida suvning massasi NaOH massasidan 6,5 marta katta.
 A) 72 B) 98,4 C) 14,2 D) 85,2
78. 36 g glukozaning fermentlar ta'sirida spirtli bijg'ishi natijasida necha gramm etil spirti hosil bo'lishini aniqlang.
 A) 36,8 B) 50,6 C) 59,8 D) 18,4
79. Propanol, fenol va sirkva kislotadan iborat aralashma Na metali bilan ishlanguanda 4,48 litr (n.sh.) gaz ajraldi. Xuddi shunday miqdordagi aralashma NaHCO_3 eritmasi bilan ishlanguanda olingan gaz 195,6 g NaOH eritmasidan o'tkazilganda faqat NaHCO_3 tutgan 4,2% li eritma hosil bo'ldi. Agar boshlang'ich aralashmada sirkva kislotaning massasi propanol massasiga teng bo'lsa, sirkva kislota massasini (g) aniqlang.
 A) 6 B) 24 C) 12 D) 3
80. Oltinchi energetik pog'ona (qavat) ga maksimal sig'ishi mumkin bo'lgan elektronlar sonini aniqlang.
 A) 72 B) 32 C) 36 D) 54
81. 110 g 10% li K_2S eritmasidagi barcha elektronlar sonini aniqlang.
 A) $60,4 \cdot N_A$ B) $55 \cdot N_A$ C) $35 \cdot N_A$ D) $5,4 \cdot N_A$
82. Asetilenning dimerlanishidan (kat. NH_4Cl va CuCl_2) hosil bo'lgan moddani aniqlang.
 A) *benzol* B) *polietilen* C) *butadiyen-2,4* D) *vinilasetilen*
83. O'zaro izomer bo'lgan ikkita aromatik uglevodorod kaliy permanganatning kislotali eritmasi bilan oksidlanguanda 1,4 mol CO_2 gazi, 0,2 mol benzoy kislota va 0,4 mol tereftal kislota hosil bo'ldi. Boshlang'ich uglevodorodlar massasini toping.
 A) 20,1; 12
 B) 33,5; 80,4
 C) 46,9; 93,8
 D) 26,8; 53,6
84. Elektrolitning dissotsiatsiyalish konstantasi qiymatining o'zgarishi nima(lar)ga bog'liq?
 1) elektrolit tabiatiga; 2) erituvchi tabiatiga; 3) konsentratsiyaga; 4) haroratga
 A) *faqat 4* B) *1,2,3,4* C) *1,2,3* D) *1,2,4*
85. Qaysi metall atomlari zinch joylashgan eksagonal sistemada kristallanadi, lekin 880°C da qizdirilganda polimorf o'zgarish vujudga kelib, kristall panjarasi hajmiy markashlashgan kubga aylanadi?
 A) *Co* B) *Ti* C) *Hg* D) *Ag*
86. 0,5 mol miqdorda olingan XY_2 va AY birikmalarda mos ravishda $13 \cdot N_A$ va $5 \cdot N_A$ tadan elektron bo'lsa, X ni toping. X va Y elementlar bitta davrda (berilgan tartibda) ketma-ket joylashgan.
 A) *F* B) *C* C) *N* D) *O*
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 25% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.
 A) *1/9; 5/9; 1/3*
 B) *3/10; 3/10; 2/5*
 C) *1/6; 1/2; 1/3*
 D) *1/4; 1/4; 1/2*
88. Ra (228) atomi o'zidan 3 ta α va 2 ta β^- zarrachalarni chiqarganda hosil bo'ladiqan element tartib raqamini aniqlang.

- A) 88 B) 85 C) 86 D) 84
- 89.** $0,3 \text{ mol } \text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$ va $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 8\text{H}_2\text{O}$ aralashmasining to'liq degidratlanishidan 2,6 mol suv hosil bo'ldi. Kristallogidratlarning mol nisbatini toping.
A) 1:2 B) 0,5:0,25 C) 1:1 D) 2:1,5
- 90.** 3,6 benzol gomologining nitrolanishidan 2,97 g bitta nitroguruh tutgan nitrobirkmalar aralashmasi hosil bo'ladi. Agar reaksiya unumi 60% bo'lsa, benzol gomologining formulasini toping.
A) $C_9\text{H}_{12}$
B) $C_8\text{H}_{10}$
C) $C_7\text{H}_8$
D) $C_{10}\text{H}_{14}$
- 91.** Harorat har 10°C ga oshirilganda reaksiya tezligi 3 marta ortadi. 10°C da reaksiya tezligi 0,02 mol/(l·s) bo'lsa, harorati 30°C gacha ko'tarilganda, uning tezligi qanday (mol/(l·s)) bo'ladi?
A) 0,09 B) 0,16 C) 0,54 D) 0,18
- 92.** 600 g 73,5% li sulfat kislota eritmasiga necha gramm suv qo'shilganda 49% li eritma hosil bo'ladi?
A) 350 B) 300 C) 250 D) 600
- 93.** 1,25 mol modda 367,5 g suvda eritilganda uning 25% li eritmasi olindi. Erigan muddaning molyar massasini (g/mol) aniqlang. (Reaksiya sodir bo'lmaydi)
A) 56 B) 40 C) 63 D) 98
- 94.** Atomlari soni teng bo'lgan saxaroza va suv 25°C da aralashtirilganda 360 g cho'kma va 2700 g to'yingan eritma hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan to'yingan eritmadagi saxaroza va suv massalarini (g) aniqlang.
A) 1350, 1350 B) 1500, 1200 C) 1134, 1566 D) 1410, 1290
- 95.** Eritmadagi H^+ ionlari OH^- ionlaridan 10^2 marta ko'p bo'lsa, eritmadagi pOH qiymatini toping.
A) 4 B) 9 C) 5 D) 8
- 96.** $\text{XO}_4^{3-} \rightarrow \text{X}^{3-}$ Ushbu qaytarilish jarayonida X^{3-} qabul qilgan elektronlar soni dastlabki X ning protonlari sonidan 15/8 marta kam bo'lsa, noma'lum elementni aniqlang.
A) P B) As C) N D) Sb
- 97.** $\text{Ca}(\text{ClO})_2 + \text{HCl} = \text{CaCl}_2 + \text{Cl}_2 + \text{H}_2\text{O}$ reaksiya bo'yicha oksidlovchi 8N_A ta elektron olgan bo'lsa, ajralgan gaz hajmini (l, n.sh.) toping.
A) 22,4 B) 56 C) 89,6 D) 67,2
- 98.** CrSO_4 tuzining suvdagi eritmasi orqali 3 soat davomida 2,68 amper tok kuchi o'tkazilsa, necha gramm xrom metali ajralib chiqadi? Tokka nisbatan unum 80%.
A) 6,24 B) 8,40 C) 9,36 D) 8,96
- 99.** Karborund va kvars aralashmasida molekulalar soni atomlar sonidan 2,6 marta kam bo'lsa, aralashmadagi Si ning massa ulushini (%) aniqlang
A) 21,5 B) 14,0 C) 28,0 D) 53,85
- 100.** 1 mol baryi gidrokarbonat qattiq qizdirilganda uning massasi necha grammga kamayadi?
A) 106 B) 62 C) 44 D) 18
- 101.** 0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, kadmiyning miqdorini (mol) hisoblang.
A) 0,1 B) 0,2 C) 0,3 D) 0,4
- 102.** MeSO_4 ning 160 g 10%li to'yingan eritmasiga shu tuzdan 6,9 g qo'shildi va qizdirildi. So'ngra eritma boshlang'ich haroratga qadar sovutildi. Natijada 13,9 g $\text{MeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$ cho'kmaga tushdi. Qolgan eritmadagi tuzning miqdorini (mol) hisoblang.
A) 0,3 B) 0,1 C) 0,2 D) 0,4
- 103.** $x\text{CaCO}_3 = y\text{CaCO}_3 + z\text{CaO} + z\text{CO}_2$ ifodada x, y, z, z koefitsiyentlarning eng kichik butun qiymatdagi nisbatlari 5:1:4:4 bo'lsa, reaksiyaning mahsulot unumini (%) aniqlang.
A) 60 B) 80 C) 75 D) 50
- 104.** Ballondagi kislороднинг 60% i (hajm jihatidan) O_3 ga aylanganda idishdagি bosim necha marta kamayadi?
- A) 1,50 B) 2,14 C) 1,25 D) 1,70
- 105.** 10,96 g Ca_3N_2 va CaH_2 dan iborat aralashma teng ikki qismiga ajratildi. Aralashmaning 1-qismiga yetarli miqdorda suv ta'sir ettirilganda 0,16 mol gazlar ajraldi. 2- qismiga mo'l miqdorda xlorid kislota ta'sir ettirilganda hosil bo'ladi CaCl_2 ning miqdorini (mol) hisoblang.
A) 0,12 B) 0,04 C) 0,02 D) 0,06
- 106.** Quyidagi tuzlar gidrolizga uchraganda neytral muhit hosil qiladiganlarini ajrating.
1) $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$; 2) K_2SO_4 ; 3) $\text{CH}_3\text{COONH}_4$; 4) NaNO_2 ; 5) $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$; 6) $(\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Ca}$
A) 2, 6 B) 1, 4, 5 C) 1, 3, 4 D) 1, 3
- 107.** Alkan molekulyar massasi uning tarkibidagi uglerod atomlari massasidan (m.a.b) 8 m.a.b ga ortiq bo'lsa, alkanni aniqlang.
A) etan B) butan C) pentan D) propan
- 108.** Noma'lum alken gidrogenlanganda 43,5 g mahsulot olindi, yetarli kislородда yoqilganda esa 132 g modda hosil bo'ladi. U bromlanganda necha gramm dibromalkan hosil bo'ladi?
A) 138 B) 162 C) 151,5 D) 150,4